

27. Turg'unov, J. A. (2024). SANOAT KORXONALARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRINI BAHOLASHDA EIA TIZIMINI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 33-36.
28. Turg'unov, J. (2024). Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(7). Retrieved from <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2487>
29. Turgunov Jasurbek. (2024). SANOAT KORXONALARINING ATROF MUHITGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH YO'LLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(5), 15–24. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/678>
30. Siddikova Farangizkhon, & Turgunov Jasurbek. (2024). THE INFLUENCE OF IOT ON THE BUSINESS SECTOR'S ECONOMIC LANDSCAPE. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(5), 36–41. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/685>
31. Turgunov Jasurbek, (2024) Innovative methods for assessing the environmental impact of industrial enterprises' development based on the sustainable development goals, Biznes-Ekspert, "Biznes-Daily Media", 49-52
32. Turg'unov, Jasurbek. (2024). BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH VA ATROF MUHITGA TA'SIRNI KAMAYTIRISHDA XALQARO KELISHUVLARNING AHAMIYATI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2. 257-261. 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss10-pp257-261.
33. Turg'unov, J. A. (2023). Sanoat korxonalarini rivojlantirishda aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy etish masalalari. "Nordic" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2025 | Journal article, DOI: 10.69949/nordic-0000009

O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLARNI BARQAROR RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSİYALAR ROLI

Abdullajonov Sh.D.

Qo'qon universitetining Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi
abdavron94@gmail.com

Mamatxonova M.

Qo'qon Universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi
(+99891 738 84 04)

Annotatsiya

Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishida innovatsiyalar va investitsiyalarning strategik o'ri ko'rib chiqiladi. Qolaversa, innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va ekologik barqarorlikni ta'minlashda, investitsiyalar esa ushbu jarayonlarni amalga oshirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot O'zbekiston va boshqa davlatlarning tajribalarini tahlil qilgan holda, zamonaviy yondashuvlar va barqaror iqtisodiy o'sishga qaratilgan tavsiyalarni taklif etadi. Bundan tashqari, tadbirkorlikning barqaror rivojlanishida innovatsiyalar va investitsiyalarning tutgan o'ri, ularning o'zaro ta'siri va samaradorligini O'zbekiston misolida ko'rib chiqadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida zamonaviy tadbirkorlik uchun muhim strategiyalar va yo'nalishlar tahlil qilinadi. Bu nafaqat tadbirkorlik subyektlari, balki iqtisodiy siyosat yurituvchi tashkilotlar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: Innovatsion iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy islohotlar, investitsiya imkoniyatlari, raqamli transformatsiya, global hamkorlik, innovatsion tizimlar, barqaror rivojlanish, texnologik rivojlanish, xalqaro biznes

Kirish

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida barqaror rivojlanish nafaqat davlat siyosati, balki tadbirkorlik faoliyati uchun ham asosiy maqsadlarga aylangan. Bunda innovatsiyalar texnologik yechimlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishga yordam bersa, investitsiyalar ushbu yechimlarni amalga oshirish uchun moliyaviy asos yaratadi. Shu sababli tadbirkorlarning barqaror rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotda asosiy mavzulardan biri boʻlib qolmoqda. Tadbirkorlar uchun innovatsiyalar – bu faqat texnologik taraqqiyot emas, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikka olib keladigan yangi yondashuvlar va yechimlardir. Innovatsiyalar yordamida nafaqat mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, balki yangi bozorlar va imkoniyatlar yaratish ham mumkin. Shu bilan birga, investitsiyalar tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida moliyaviy poydevor vazifasini bajaradi. Ular innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash, raqobatbardoshlikni oshirish va bozor talablarini qondirish uchun zarur boʻlgan resurslarni taqdim etadi. Barchamizga maʼlumki, soʻnggi yillarda Oʻzbekiston ham innovatsiyalar va investitsiyalarni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratmoqda. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan 2022-2030 yillar uchun Innovatsion rivojlanish strategiyasi annotatsiyalarni keng koʻlamda joriy etish, texnologik tadqiqotlarni moliyalashtirish va tadbirkorlikni ragʻbatlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalar va IT Parklar kabi tashabbuslarni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilishdir. Bugungi kunda mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay imkoniyatlardan biridir. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2021 yildagi maʼruzalarida: “Barqaror iqtisodiy oʻsishning eng muhim shartlaridan biri – innovatsiyalarni kengayonlar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, balki yangi ish oʻrinlarini yaratish, ekologik xavfsizlikni saqlash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega” 4deb taʼkidlagan edi. Bu soʻzlar innovatsiyalar va investitsiyalarni rivojlantirishning mamlakatimiz uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini yana bir bor koʻrsatadi

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili

Barqaror tadbirkorlik, innovatsiyalar va investitsiyalarga oid ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar ushbu sohalarini chuqur oʻrganish va ular asosida samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun muhim manbadir. Tahlil qilingan adabiyotlar mazmun va mazmunan uchta asosiy guruhga ajratiladi:

Nazariy tadqiqotlar

Nazariy tadqiqotlar iqtisodiy rivojlanish, innovatsiyalar va investitsiyalarning mohiyatini oʻrganishga qaratilgan. Masalan:

Schumpeter (1942) tomonidan taʼkidlanganidek, innovatsiyalar “kapitalizm, sotsializm va demokratiya” asarida iqtisodiy rivojlanishning “ijodiy buzilish” mexanizmi sifatida qabul qilinadi.⁵ U yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratish orqali raqobatni oshirishga va bozorda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga yordam beradi.

Porter va Kramer (2011): Ushbu tadqiqotda innovatsiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim rol oʻynashi koʻrsatilgan. Mualliflar “umumiy qiymat yaratish” konsepsiyasini ilgari surib, biznes faoliyatini ijtimoiy masalalarga yoʻnaltirish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkinligini taʼkidlashgan.

Amaliy tadqiqotlar

⁴ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-avgustdagi “Yangi Oʻzbekistonning iqtisodiy islohotlari va innovatsiyalar” mavzusidagi nutqidan
⁵ Joseph Schumpeterning “Kapitalizm, Sotsializm va Demokratiya” asaridan olingan.

Amaliy tadqiqotlar real hayotdagi misollar va tajribalar asosida innovatsiyalar va investitsiyalarning samaradorligini o'rganadi. Ushbu guruhdagi tadqiqotlar qatoriga quyidagilar kiradi:

McKinsey (2022): Kompaniya hisobotida raqamli texnologiyalar tadbirkorlikda samaradorlikni oshirish vositasi sifatida tahlil qilingan. Hisobotda avtomatlashtirilgan tizimlar, sun'iy intellekt va raqamli xizmatlarning biznesni rivojlantirishdagi ahamiyati qayd etilgan.

OECD (2023): Hisobot kichik va o'rta biznes (KO'B)ning innovatsion rivojlanishdagi o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. KO'Bni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Mahalliy tadqiqotlar

O'zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga oladi. Bunda quyidagilar alohida e'tiborga loyiq:

O'zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi: Mazkur vazirlikning ma'lumotlari mamlakatda innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan strategiya va loyihalar haqida batafsil ma'lumot beradi. Xususan, 2022-2030 yillar uchun Innovatsion rivojlanish strategiyasi innovatsiyalarni keng ko'lamda joriy qilish va texnologik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Erkin iqtisodiy zonalar: Ushbu hududlarda xorijiy va mahalliy investitsiyalar hisobiga innovatsion loyihalarni amalga oshirish tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlarning nazariy va amaliy jihatdan o'rganilishi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Nazariy tadqiqotlar innovatsiyalar va investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini ochib bergan bo'lsa, amaliy tadqiqotlar ushbu jarayonlarning real iqtisodiyotni shakllantirishdagi rolini ko'rsatib berdi. Mahalliy manbalar esa O'zbekiston sharoitida innovatsiyalar va investitsiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashga doir muhim natijalarni aniqlash imkonini berdi. Shu asosda ishlab chiqilgan tavsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, xalqaro va mahalliy tajribalarni uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda biz SWOT tahlilidan foydalandik. Ushbu tahlil SWOT ya'ni (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats – Kuchli tomonlar, Zaifliklar, Imkoniyatlar va Tahdidlardir. SWOT tahlili orqali tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalar va investitsiyalarning barqaror rivojlanishga ta'siri o'rganilib, mavjud imkoniyatlar va xavf-xatarlarga baho berildi.

Tahlil jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

Ma'lumotlarni yig'ish – O'zbekistonning IT Parklari, erkin iqtisodiy zonalari va xalqaro tadqiqotlardan ma'lumotlar to'plandi

Tahliliy yondashuv – Innovatsiyalar va investitsiyalarning ijobiy va salbiy jihatlari, imkoniyatlar va xavf-xatarlari aniqlanib, ularning barqaror tadbirkorlik rivojiga ta'siri tahlil qilindi.

Strategik tavsiyalar ishlab chiqish – SWOT tahlili natijasida aniqlangan ma'lumotlar asosida samarali yechimlar va strategiyalarni taklif qiladi.

Tahlil va natijalar

SWOT tahlili O'zbekistonning innovatsiyalar va investitsiyalar sohasidagi imkoniyatlari va muammolarini aniqlashga imkon berdi:

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)	Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
---------------------------------------	--------------------------------------	--	----------------------------

Innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi – Texnoparklar va IT Parklar yangi texnologiyalarni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun qulay sharoit yaratmoqda.	Mahalliy tadbirkorlar uchun texnologik bilim va tajriba yetishmasligi – Ko‘pchilik tadbirkorlar zamonaviy texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit – Davlat tomonidan yaratilgan soliq imtiyozlari va qonunchilik himoyasi investorlar uchun jozibador.	Global iqtisodiy inqirozlar va pandemiyalar ta’siri – Jahon miqyosidagi iqtisodiy o‘zgarishlar mahalliy iqtisodiyotni salbiy ta’sir ostida qoldirishi mumkin.
Davlat tomonidan investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash – Innovatsion rivojlanish strategiyasi orqali davlat moliyaviy va huquqiy yordam ko‘rsatmoqda.	Investitsiyalarni jalb qilishda ma’lum cheklovlar – Byurokratiya va regulativ to‘siqlar ba’zi investorlar uchun qiyinchilik tug‘diradi.	Texnologik taraqqiyotdan foydalanish orqali yangi bozorlar – Raqamli xizmatlar va innovatsion mahsulotlar orqali mahalliy va xalqaro bozorlarni egallash mumkin.	Raqobatchi davlatlarning iqtisodiy o‘ssishi – Qo‘shni mamlakatlar tomonidan innovatsion sohalarda yetakchilik qilinishi raqobatni kuchaytiradi.
Yosh mutaxassislar va startaplar uchun qulay imkoniyatlar – Innovatsion zonalar yangi avlod tadbirkorlarini tayyorlash va qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.	Ko‘pchilik sohalarda innovatsion texnologiyalarning yetarlicha tatbiq etilmasligi – An’anaviy ishlab chiqarish texnologiyalari o‘zgarishga qarshilik ko‘rsatmoqda.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish – Sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli tizimlar yordamida samaradorlikni oshirish imkoniyati mavjud.	Atrof-muhitga zarar yetkazadigan eski texnologiyalarning saqlanib qolishi – Ekologik barqarorlikka e’tibor bermaslik kelajakda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.
Xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyati –	Texnologik loyiha va startaplarning kapital yetishmovchiligi – Innovatsion g‘oyalarni amalga	Global hamkorlikni kengaytirish imkoniyati – Xalqaro tashkilotlar va	Raqobatbardoshlikning ortishi – Xalqaro va mahalliy bozorda kuchli raqobatchilar paydo bo‘lishi innovatsion loyihalar

Rivojlangan mamlakatlarning amaliyotlarini tatbiq etish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyati mavjud	oshirish uchun ko'pincha yetarli moliyaviy manbalar mavjud emas.	rivojlangan davlatlar bilan innovatsion loyihalar bo'yicha hamkorlik qilish orqali tajriba va moliyaviy manbalarni jalb etish mumkin.	muvaffaqiyatiga to'sqinlik qilishi mumkin.
--	--	---	--

1-jadval. SWOT tahlil natijalari.

SWOT tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar va investitsiyalar uyg'unligi O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqishda muhim omil bo'lib xizmat qilad

Xulosa va tavsiyalar

Tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishida innovatsiyalar va investitsiyalar asosiy rol o'ynaydi. Innovatsiyalar iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni joriy qilish imkonini beradi. Ular tadbirkorlarning raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarni kashf etish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan o'sishga erishish uchun muhim vositadir. Investitsiyalar esa innovatsiyalarni moliyalashtirish orqali ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat siyosati va strategiyalari barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda katta ahamiyatga ega. Innovatsion rivojlanish strategiyasi, IT Parklar va erkin iqtisodiy zonalar kabi tashabbuslar tadbirkorlik subyektlariga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish orqali nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki yangi ish o'rinlarini yaratishga va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishga erishilmoqda. Shuningdek, xalqaro tajribadan foydalanish O'zbekistonga innovatsiyalarni joriy qilish va investitsiyalarni jalb qilishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Misol uchun, rivojlangan mamlakatlarning yashil texnologiyalarni qo'llash tajribasi mahalliy tadbirkorlikni ekologik barqaror yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Jahon Banki (2023) O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha o'z tahlilida: "Davlatning innovatsion rivojlanishga bo'lgan e'tibori va investitsiya muhiti yaratishdagi sa'y-harakatlari iqtisodiyotning barqaror o'sishiga va yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi"6 deb ta'kidladi.

Ushbu tahlillar asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish: Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish uchun ilmiy-tadqiqot markazlari va texnoparklarni kengaytirish.

Investitsion muhitni yaxshilash: Investorlarga soliq imtiyozlari, qulay kredit shartlari va huquqiy himoya ta'minlash orqali investitsiyalarni rag'batlantirish.

Kadrlar tayyorlash: Ta'lim tizimida innovatsion bilim va ko'nikmalarga e'tiborni kuchaytirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: Innovatsiyalar va investitsiyalar sohasida xalqaro tajribani o'zlashtirish va xorijiy sarmoyadorlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

6 OECDning 2023-yildagi hisobotidan olingan

Raqamli transformatsiyani rivojlantirish: Avtomatlashtirilgan tizimlar, sun'iy intellekt va raqamli xizmatlarni keng joriy qilish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sharoitida innovatsiyalar va investitsiyalar uyg'unligi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki global raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat, tadbirkorlar va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish strategiyasi (2022-2030).
2. Jahon Banki. O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlari, 2023 yil.
3. Abdullajonov, D. (2021). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YANGI O'ZBEKISTONNING IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, RAQAMLI IQTISODIYOTNING ISTIQBOLLARI. Экономика и социум, (12-1 (91)), 28-33.
4. Abdullajonov, D. S. O., & Kasimova, G. K. Q. (2022). DEVELOP A TRAINING PROGRAM FOR YOUNG PROFESSIONALS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS, WHICH IS THE CORE OF CYBERSECURITY. Academic research in educational sciences, 3(6), 185-192.
5. Surayyoxon, M., & Davronjon, A. (2023). BUGUNGI KUNDA TALIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1210-1212.
6. Olimov, I. (2023). DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OUR COUNTRY ALONG WITH INTERNET TECHNOLOGY INNOVATIONS. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(2), 210-216.
7. Davronjon, A., & Gulmiraxon, K. (2022). WIDESPREAD INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE REAL SECTOR OF THE ECONOMY, AS WELL AS IN AGRICULTURE AND WATER MANAGEMENT. World Economics and Finance Bulletin, 9, 167-17
8. Tajiyeva, M. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC SYSTEM OF SMALL BUSINESS THEORETICAL VIEWS OF SCIENTISTS IN DEVELOPMENT. A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 55-59.
9. Tojiyeva, M. M. (2022). Худудий иқтисодиётни ривожлантиришда кичик бизнеснинг аҳамияти. In 3rd German Conference-2022, A CONFERENCE FOR THE FUTURE GRADUATES AND EDUCATORS. Berlin, Germany July 30th.
10. Qizi, T. M. M. (2022). The importance of studying $\varphi(x) = \cos(ax^2)$ functions in strengthening students' knowledge of trigonometric functions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 147-151.
11. Tojiyeva, M. M. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MAMLAKAT IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 126-130.
12. Tojiyeva, M. M. (2024). O 'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA OLIMPIADA MASALALARINI O 'QITISHNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 444-448.
13. Hamidjon Rasulov. (2023). SIYOSIY MOJAROLARNING TURIZMGA TA'SIRI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 147–150. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.857>
14. Yakubovich, R. H. (2024). QO 'QON SHAHAR TURIZMI RIVOJLANISHIDA HUNARMANDCHILIKNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 668-671.

15. Rasulov Hamidjon Yakubovich, & Abdumannonov Rizobek Iqboljon o'g'li. (2024). EKSKURSIYA FAOLIYATI UCHUN MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLI TENDENSIYALARI. Kokand University Research Base, 884–888. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/246>
16. Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 8-11.
17. Boburmirzo, K., & Boburjon, T. (2022). Exchange rate influence on foreign direct investment: empirical evidence from cis countries. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 2(04), 19-28.
18. Turg'unov, J. A. (2023). MAMLAKATIMIZDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH HOLATI VA ASOSIY YO'NALISHLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 85-87.
19. Turg'unov, J. A. (2024). SANOAT KORXONALARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRINI BAHOLASHDA EIA TIZIMINI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 33-36.
20. Turg'unov, J. (2024). Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(7). Retrieved from <https://yashil-iqtisodiyo-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2487>
21. Turgunov Jasurbek. (2024). SANOAT KORXONALARINING ATROF MUHITGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH YO'LLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(5), 15–24. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/678>
22. Siddikova Farangizkhon, & Turgunov Jasurbek. (2024). THE INFLUENCE OF IOT ON THE BUSINESS SECTOR'S ECONOMIC LANDSCAPE. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(5), 36–41. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/685>
23. Turgunov Jasurbek, (2024) Innovative methods for assessing the environmental impact of industrial enterprises' development based on the sustainable development goals, Biznes-Ekspert, "Biznes-Daily Media", 49-52
24. Turg'unov, Jasurbek. (2024). BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH VA ATROF MUHITGA TA'SIRINI KAMAYTIRISHDA XALQARO KELISHUVLARNING AHAMIYATI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2. 257-261. 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss10-pp257-261.
25. Turg'unov, J. A. (2023). Sanoat korxonalarini rivojlantirishda aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy etish masalalari. "Nordic" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2025 | Journal article, DOI: 10.69949/nordic-0000009